

## SUG'URTA BOZORI RAQOBAT DARAJASINI ANIQLASHGA MUQOBIL YONDASHUV

*B.B.Abdurasulov, tayanch doktorant*

*“O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari”  
ilmiy tadqiqot markazi*

So‘nggi yillarda sug‘urta sohasida amalga oshirilgan turli islohotlar tufayli bir qator ijobiy natijalar qo‘lga kiritilgan. Jumladan sektorning normativ asoslari mustahkamlanib, “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritildi, raqobatbardosh sug‘urta bozorini rivojlantirish va o‘zgartirishga qaratilgan bir qator me‘yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Huquqiy asosning mustahkamlanishi natijasida sohani yanada rivojlantirish, shuningdek, iste‘molchilarning huquqiy va qonuniy manfaatlarini himoya qilish uchun qulay shart-sharoitlar yaratildi.

2017-yilda O‘zbekistonda 27 ta sug‘urta kompaniyasi faoliyat olib borgan bo‘lsa, 2022-yilda ularning soni 51,8 foizga oshib, 41 taga yetdi, shuningdek, 30 dan ortiq tegishli xizmatlarni ko‘rsatuvchi tadbirkorlik subyektlari faoliyat yurityapti. 2022-yilda sug‘urta kompaniyalari ustav kapitali 2017-yildagiga nisbatan 5,8 baravar o‘shib, 1,88 trillion so‘mni tashkil qildi.

Sug‘urta polislari soni 1,4 baravar o‘shib, 8,4 milliontaga yetdi va shartnomalar asosan foydalanuvchi uchun qulay elektron shaklga o‘tkazildi. 2022-yilda mijozlar uchun sug‘urta to‘lovlarning umumiy miqdori 2,6 trillion so‘mni tashkil qildi va bu 2017-yildagiga nisbatan 9,6 baravar ko‘p degani.

Hududlardagi tarkibiy tuzilmalar soni 2017-yildagiga nisbatan 1,5 baravar oshdi va deyarli 2 mingtaga yetdi. Barcha hududlarda 15,4 ming nafar xodim va sug‘urta agenti uchun barqaror ish o‘rni yaratildi.

Shuningdek, O‘zbekistondagi sug‘urta kompaniyalari turli yo‘nalishlarda 110 dan ortiq turdagi sug‘urta mahsulotlarini taklif etyapti. Zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etish, sug‘urta bozorini raqamlashtirish, iste‘molchilar ishonchini, shuningdek, sug‘urta madaniyati darajasini oshirish, milliy sug‘urta bozorini xalqaro standartlarga izchil muvofiqlashtirish sohada samaradorlikning oshishiga olib keladi.

Shu bilan birga, hududlarda yangi ish o‘rinlari tashkil etilishi, bozorda raqobat darajasi va biznes yuritish ishonchligining oshishi hisobiga nafaqat sug‘urta xizmatlari sohasi, balki turdosh tarmoqlar ham yanada rivojlanadi, turli sohalarga investitsiya kiritish imkoniyatlari kengayadi.

Odatda istalgan tarmoqda raqobat darajasini aniqlash uchun Herfindal-Hirshman indeksidan foydalaniladi. Bu ko‘rsatkich sohadagi ishtirokchilarning bozordagi ulushi kvadratlarining yig‘indisini hisoblash orqali topiladi<sup>75</sup>:

$$HHI = \sum_{i=1}^n (MS_i)^2$$

<sup>75</sup> Rhoades, Stephen A. "The herfindahl-hirschman index." Fed. Res. Bull. 79 (1993): 188.

Bu yerda  $MS$  – firmaning bozordagi ulushi, ulushlar birdan yuzgacha bo‘lgan intervalda hisoblanadi. Aksariyat ilmiy adabiyotlarda sug‘urta bozoridagi raqobat darajasi ularning jami sug‘urta mukofotlari summasiga qarab aniqlanadi.<sup>76 77 78</sup>.

Sug‘urta bozorida takoful tashkilotlari ham ishtirok etishini hisobga olsak, ularda sug‘urta mukofotlari ustavga hissa sifatida qaraladi. Shu bois takoful kompaniyalarning mijozlar doirasi o‘zining aksiyadorlari doirasida chegaralangan bo‘ladi. Raqobat darajasini hisoblaganda faqat sug‘urta mukofotlarini hisoblashning o‘zi takoful operatorlarining o‘rnini sezilarni darajada tushirib yuborishi tabiiy. Shuning uchun biz indeksni hisoblashda premiunlarni emas, balki aktivlarni inobatga olishni tavsiya qilamiz. Bundan tashqari, biz sug‘urta bozoridagi raqobat darajasini hisoblashning alternativ metodini ham taklif qilamiz. Negaki, Herfindal-Hirshman indeksi natijalarida bozor ishtirokchilari soniga mos keladigan me‘yoriy darajani aniqlashning imkoni yo‘q. Masalan, ishtirokchilar soni 5 ta bo‘lgan bozor uchun mutlaq sof raqobat mavjud bo‘lganda, indeks 2000 chiqadi, ammo ishtirokchilari 10 ta yoki undan ko‘p bozor uchun HHI ning 2000 chiqishi norma emas. Shuning uchun bozor hajmi uchun me‘yor hisoblanishi kerak va raqobat darajasini qandayligini aniqlash uchun ana shu meyordan chetlanishni hisoblash kerak.

$$RI = \frac{\sum_{i=1}^n (MS_i)^2}{\sum \left(\frac{100}{n}\right)^2} = \frac{HHI}{\sum \left(\frac{100}{n}\right)^2}$$

Bu yerda  $RI$  – biz taklif qilayotgan raqobat indeksi,  $n$  – bozordagi ishtirokchilar soni. Ushbu indeks raqobat darajasi me‘yordan necha marta kamligini ifodalaydi. Indeksning minimum qiymati 1 ga teng bo‘ladi – bu mutlaq sof raqobat darajasini anglatadi, ya‘ni ishtirokchilar bozorda teng ulushlarga egalik qilishini bildiradi. Anu shu taklif qilingan raqobat indeksidan foydalanib, Sug‘urta bozorini rivojlantirish agentligi ma‘lumotlari asosida O‘zbekiston sug‘urta bozori raqobat indekslarini so‘nggi uch yil uchun hisoblab chiqdik:

### 1-jadval

#### O‘zbekiston sug‘urta bozori raqobat ko‘rsatkichi<sup>79</sup>

Yillar	Herfindal-Hirsh indeksi	Norma	RI, normadan chetlanish
2020	1106	333	×3.32
2021	661	294	×2.24
2022	933	294	×3.17

O‘zbekiston sug‘urta bozorida umumiy sug‘urta ximatini ko‘rsatuvchi 30 dan ortiq professional ishtirokchilar mavjud. Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, bozordagi raqobat darajasi o‘rtacha olganda me‘yordan 3 karra chetlangan. Ya‘ni bozor ulushi asosan sanoqli yirik ishtirokchilar qo‘lida to‘plangan desa ham bo‘ladi. Bozorning yarmiga bor yo‘g‘i beshta tashkilotga tegishli. Bu esa konsentratsiyaning yuqoriligidan dalolat beradi.

<sup>76</sup> Brezina, Ivan, et al. "Herfindahl–Hirschman index level of concentration values modification and analysis of their change." Central European journal of operations research 24 (2016): 49-72.

<sup>77</sup> Arych, Mykhailo, and Walter Darcy. "General trends and competitiveness of Australian life insurance industry." (2020).

<sup>78</sup> Basturk, Feride Hayırsever. "Characteristics and competition structure of Turkish insurance industry." Procedia-Social and Behavioral Sciences 62 (2012): 1084-1088.

<sup>79</sup> Sug‘urta bozorini rivojlantirish agentligi hisobotlaridan foydalangan holda muallif tomonidan hisoblangan

Xulosa qilib aytganda, moliyaviy hisob yuritishda an'anaviy va takoful sug'urtasida konseptual farqlar borligi ko'zga tashlanadi. An'anaviy tizimdagi sug'urta mukofotlari pro-rata uslubida daromad sifatida tan olinsa, takoful kompaniyalarida hissadorlardan olingan mablag'lar kompaniyaning ustavi ko'rinishida shakllanadi. Bu esa moliyaviy ko'rsatkichlarni hisoblashda ikkala turdagi tashkilotlarda alohida yondashuvni talab qiladi. Sohadagi raqobatni o'rganish uslubiyotida to'xtaladigan bo'lsak, yuqoridagi sabablar tufayli an'anaviy sug'urta va takoful tashkilotlarini umumiy mezonga keltirish uchun ularning bozordagi ulushini hisoblaganda sug'urta mukofotlarini emas, balki aktivlarni inobatga olish maqsadga muvofiq bo'ladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

Rhoades, Stephen A. "The herfindahl-hirschman index." *Fed. Res. Bull.* 79 (1993): 188.

Brezina, Ivan, et al. "Herfindahl–Hirschman index level of concentration values modification and analysis of their change." *Central European journal of operations research* 24 (2016): 49-72.

Arych, Mykhailo, and Walter Darcy. "General trends and competitiveness of Australian life insurance industry." (2020).

Basturk, Feride Hayirsever. "Characteristics and competition structure of Turkish insurance industry." *Procedia-Social and Behavioral Sciences* 62 (2012): 1084-1088.

Abdurasulov, B. (2023). CHALLENGES AND RECOMMENDATIONS FOR TAKAFUL ACCOUNTING. "Milliy Iqtisodiyotni Isloh Qilish Va Barqaror Rivojlantirish istiqbollari" Respublika Ilmiy-Amaliy Konferensiyasi Materiallari to'plami., 150–152. Retrieved from <https://conference.tsue.uz/index.php/article/article/view/370>

Abdurasulov, B. (2023). COMPARATIVE ANALYSIS BETWEEN TAKAFUL AND CONVENTIONAL INSURANCE. Приоритетные направления, современные тенденции и перспективы развития финансового рынка, 394–395. извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/financial-market-growth/article/view/19108>

Abdurasulov, B. (2023). O'ZBEKISTON SUG'URTA TASHKILOTLARIDA ROE, SEO VA RENTABELIK O'RTASIDAGI MUNOSABATLAR. *Iqtisodiy Taraqqiyot Va Tahlil*, 1(4), 5–11. <https://doi.org/10.60078/2992-877X-2023-vol1-iss4-pp5-11>

## **МИНТАҚАДА КАМБАҒАЛЛИКНИ ҚИСҚАРТИРИШДА ИЖТИМОЙ ХИМОЯ ТИЗИМИНИНГ ЎРНИ**

**Ж.Бабажанов**, докторант  
Урганч Давлат Университети

Аҳолини ижтимоий химоя қилиш тизими аҳолининг ижтимоий жихатдан мухтож тоифалари (кексалар, ногиронлар, кўп болали оилалар ва б.) турмуш даражасини яхшилашга ва моддий фаровонлигини оширишга хизмат қилиши зарур. Шунингдек, ижтимоий химоя тизими мақсадли, мамлакат иқтисодий ривожланиш даражасига мос, самарали-манзилли (яхши бошқариладиган акс информацион таъсир кўрсатувчи, қўйилган мақсадга кам харажатлар билан эришиши, адолатли) ва халқнинг урф-одатлари, маданияти ва анъаналарига асосланган бўлиши лозим.

Бу борадаги устувор вазифалар Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблеясининг 2015 йилнинг сентябрида Барқарор ривожланиш буйича утказилган саммитида қабул қилинган 70-сон резолюциясига мувофиқ,